

TILNING IFODA JIHATLARI

Andijon davlat chet tillari instituti
Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va
tarjimashunoslik fakulteti: Filologiya va tillarni o'qitish:
arab tili yo'nalishi talabasi
Avazxonova Mohlaroy Bunyodbek qizi
Ilmiy maslahatchi: Kabulova Umida

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning ifoda jihatlari haqida so'z yuritiladi. Ifoda jihatlari tilning fonetik, leksik va grammatik vositalari orqali namoyon bo'lishi ta'kidlanadi.

Shuningdek, uslubiy qatlamlarda ifodaning o'ziga xos ko'rinishlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *til, ifoda jihati, fonetika, leksika, grammatika, uslub.*

Anotation: This article discusses the expressive aspects of language. It emphasizes how phonetic, lexical, and grammatical means manifest themselves in expression. In addition, it highlights the distinctive forms of expression in various stylistic layers.

Key words: *article, aspects of language, lexical, phonetic, grammatical means.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются выразительные аспекты языка. Особое внимание уделяется тому, как фонетические, лексические и грамматические средства проявляются в речи. Кроме того, освещаются особенности выражения в различных стилевых слоях, включая научный, художественный и публицистический стили.

Ключевые слова: *аспекты языка, публицистический стили, лексические.*

Til — inson tafakkurining, his-tuyg'ularining va dunyoqarashining eng muhim ifoda vositasidir. Har bir xalq o'z tilida o'z madaniyatini, tarixini va milliy ruhini namoyon etadi. Tilning ifoda jihati deganda, uning fikrni, tuyg'uni, munosabatni yoki voqelikni aniq va ta'sirli tarzda yetkazish imkoniyati tushuniladi.

Til insoniyat jamiyatining eng muhim boyligidir. U orqali nafaqat aloqa amalga oshadi, balki madaniyat, ilm-fan va ijtimoiy hayot ham shakllanadi. Har qanday tilning ikki asosiy tomoni mavjud: mazmun va ifoda. Mazmun jihati – bu fikr, g‘oya, tushuncha bo‘lsa, ifoda jihati – bu mazmunni tashuvchi shakl, ya’ni tovush, so‘z va grammatik qurilishdir. Tilning ifoda jihatlari, eng avvalo, fonetik vositalarda namoyon bo‘ladi.¹ Tovushlar, urg‘u, ohang va intonatsiya so‘zga o‘ziga xos ma’no yuklaydi. Masalan, bir xil so‘z turlicha ohangda aytilsa, u turlicha mazmunkasb etishi mumkin. Shuningdek, leksik qatlam tilning ifoda jihatida muhim o‘rin tutadi. Bir fikrni turli so‘zlar yoki sinonimlar orqali ifodalash mumkin. Masalan,

“go‘zal”, “chiroyli”, “latofatli” kabi so‘zlar bir tushunchani turlicha uslubda ifodalaydi. Tilning ifoda jihati grammatik vositalarda ham yorqin ko‘rinadi. Qo‘shimchalar, so‘zlarning tartibi, gap qurilishi – bularning barchasi mazmunni aniq ifodalash uchun xizmat qiladi. Grammatik qurilish bo‘lmasa, mazmun ham to‘laqonli ifodalanolmaydi. Uslubiy qatlamlarda ham ifoda jihatlari o‘ziga xoslik kasb etadi. Ilmiy uslubda aniqlik va mantiqiylik muhim bo‘lsa, badiiy uslubda tasviriylilik va obrazlilik ustuvorlik qiladi.² Publitsistik uslub esa ta’sirchanlik va

ishonarlilikni ko‘zlaydi. Shu bois, har bir uslubda ifoda jihati o‘ziga xos bo‘ladi. Tilning ifoda jihatlari masalasi yuzasidan ilmiy qarashlar Tilning ifoda jihatlari masalasi tilshunoslikda muhim nazariy ahamiyatga ega bo‘lib, u tilning shakl va mazmun birligi, ifoda vositalarining tuzilishi hamda ularning nutqda namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganadi. Bu yo‘nalishdagi dastlabki nazariy asoslarni F. de Sossyur o‘zining mashhur “Kurs obshchey lingvistiki” asarida yaratgan. Olim til belgisi ikki tomonlama birlik ekanini — ya’ni ifoda jihati (signifiant) va mazmun jihati (signifié) bir-biridan ajralmasligini ta’kidlaydi. Uning ta’limotiga ko‘ra, til belgisi tovush shakli

¹ Usmonov S. Umumiy tilshunoslik kursi.
– Toshkent, 1972.

² . Sodiqov A. Tilshunoslikka kirish.
– Toshkent, 2015

orqali fikrni ifoda etadi, bu esa tilning asosiy vazifasini tashkil etadi. Tilning ifoda tomonini yanada chuqurroq o'rgangan rus tilshunosi L.V. Shcherba “Языковая система и речевая деятельность” asarida tilning tizimli tabiati va nutqdagi ifoda vositalarining o'zgaruvchanligini tahlil qilgan. A.A. Potebnya esa “Мысль и язык” asarida tilni fikrning tashqi shakli sifatida talqin qilib, tilning ifoda jihati inson tafakkurining moddiy ko'rinishi ekanini ta'kidlagan. Shuningdek, V.V. Vinogradov “О языке художественной

литературы” asarida ifoda vositalarining badiiy nutqda qo'llanishini, ularning uslubiy imkoniyatlarini yoritib bergan. O'zbek tilshunosligida ham bu masala bir qator olimlar tomonidan keng yoritilgan. Jumladan, A. G'ulomov “Til va nutq” hamda “O'zbek tili nazariy grammatikasi” asarlarida tilning ifoda tomonini fonetik, morfologik va sintaktik darajalarda tahlil qilib, ularning o'zaro uyg'unligini asoslab bergan. S. Ibrohimov “Tilshunoslikka kirish” asarida tilning ikki jihatini – mazmun (ma'no) va ifoda (shakl) o'rtasidagi munosabatni batafsil tahlil qilgan. Shuningdek, A. Madvaliyev “Hozirgi o'zbek adabiy tili” asarida tilning ifoda jihatlarini adabiy me'yor bilan bog'lab o'rganadi. N. Mahmudov va A. Nurmonov “Til va nutq” nomli ishlarida tilning shakl va mazmun birligi haqida fikr yuritib, tilning ifoda vositalari inson tafakkurining moddiy ifodasi sifatida amal qilishini ta'kidlashadi.³ Tilning ifoda jihatlarini, demak, til belgilarining tashqi shakli, tovush tuzilishi, grammatik qurilishi, leksik tarkibi va uslubiy vositalari orqali namoyon bo'ladi. Bu jihatlar til tizimining barcha sathlarida – fonetik, leksik, morfologik va sintaktik darajalarda o'z ifodasini topadi. Xulosa qilib aytganda, tilning ifoda jihatlarini – bu uning tashqi shakli bo'lib, mazmunni yoritish va odamlar o'rtasida muloqot qilish imkonini beradi. Ifoda jihatizsiz mazmun mavjud bo'lolmaydi, mazmunsiz esa ifoda ma'nosizdir. Tilning bu ikki tomoni uyg'unlashgan holda jamiyat hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Tilning ifoda jihatlarini masalasi yuzasidan ilmiy qarashlar.

³ . Karimov A. Til nazariyasi asoslari.

– Toshkent, 2020

Foydalanilgan adabiyotlar:

Usmonov S. Umumiy tilshunoslik kursi.

– Toshkent, 1972.

2. Sodiqov A. Tilshunoslikka kirish.

– Toshkent, 2015

3. Karimov A. Til nazariyasi asoslari.

– Toshkent, 2020